

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 7/S

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Холлиев Азизбек Гўзалович*
РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР
БИРИНЧИ ЯРМИ) 7-13
- Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР 14-25
- Бобожонов Шавкат Улуғбекович*
ФЕНОМЕН БАХАУДДИНА НАКШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ
БУХАРСКОГО ОАЗИСА 26-31
- Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna*
ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS
ETISHI 32-39
- Isarov Umidulla Isar o'g'li*
“ILK KO'SHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI 40-45
- Исламов Шарифжон Ганиджанович*
“КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОЙ МУАММОЛАРНИНГ
ЁРИТИЛИШИ 46-54
- Фарманова Гулнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО
СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И
А.И.ТЕРЕНОЖИНОЯТ КОДЕКСИИНА) 55-64

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Ablazov Nurillo Xusanboyevich*
QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 65-71
- Kunduzova Kumrixon Ibragimovna*
ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI 72-79
- Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна*
ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ
КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ 80-90
- Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich*
PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS 91-98
- Темиров Шохрухжон Пулатхўжа ўғли*
КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА
ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 99-108

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

- Raximova Dildora Abzalovna*
GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI 109-114

Искандаров Жахонгир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Hadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOYI NIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
KOGNITIV LINGVISTIKA FANINI TAQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

*Bobojonov Dilshod Jumaqul ugli, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonu
Umidjanovna, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna, Gulnora Xolmurodova Sattorovna*
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

*Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugli, Hafizov
Sarvar Boborajab ugli, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich*
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
O'ZBEK TILIDA YARATILGAN CHAPPA (TERS) LUG'ATLAR HAQIDA 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдухаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН Фойдаланиб содир
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
"OZIQ OVQAT TECHNOLOGIYASI YO'NALISHI" TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O'QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaybullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

13.00.00- Педагогика фанлари

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
Maktabgacha ta'lim kafedراسи mudiri

MATNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnning hermenevtik kontseptsiyasi va kognitiv hermenevtik masalalari, tanqidiy fikrlaydigan shaxsga xos bo'lgan intellektual malaka va ko'nikmalari yoritilgan. Hermenevtik kontseptsiyasi va kognitiv hermenevtik masalalarga oid ma'lumotlar va islohotlar kiritilgan bo'lib, kelajakda mutaxassis faoliyati uchun kerakli yangicha dunyoqarash hamda yangicha usulda ularni tatbiq qilishda aynan hermenevtikaning roli muhim bo'lgan ahamiyati to'la yoritilgan.

Kalit so'zlar: matn, kognitivlik, jamiyat, axborot, matnni tushunish, tanqidiy fikr, rivojlanish.

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
Andijan State Pedagogical Institute,
Head of Preschool Education Department

HERMENEUTIC CONCEPT OF TEXT AND COGNITIVE HERMENEUTICS

Abstract. In this article, the hermeneutic concept of the text and cognitive hermeneutic issues, intellectual qualifications and skills characteristic of a person who thinks critically are highlighted. The information and reforms related to the hermeneutic concept and cognitive hermeneutic issues are included, and the importance of the role of hermeneutics in implementing them in a new way and a new worldview necessary for the professional activity in the future is fully explained.

Key words: text, cognition, society, information, text comprehension, critical thinking, development.

Казиева Тургуной Турсунбоевна
Андижанский государственный педагогический институт,
заведующий кафедрой дошкольного образования

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ТЕКСТА И КОГНИТИВНАЯ ГЕРМЕНЕВТИКА

Аннотация. В данной статье освещены герменевтическая концепция текста и вопросы когнитивной герменевтики, интеллектуальные качества и умения, свойственные критически мыслящему человеку. Включены сведения и реформы, связанные с герменевтической концепцией и вопросами когнитивной герменевтики, а также подробно объяснена важность роли герменевтики в их реализации по-новому и новому мировоззрению, необходимому для профессиональной деятельности в будущем.

Ключевые слова: текст, познание, общество, информация, понимание текста, критическое мышление, развитие.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I7/SY2023N23>

Kirish. Tanqidiy fikrlash – odamning kelib tushayotgan axborotni, jumladan, o‘z mulohazalarini shubha ostiga olish qobiliyatidir. Muayyan jamiyatda tanqidiy fikrlash darajasiga o‘tish ushbu jamiyatning fuqarolik rivojlanishining boshlanishi uchun zarur shartdir, degan fikr mavjud. Savol tug‘iladi: germenevtika uchun tanqidiy fikrlash kerakmi? Germenevtika tushunish va tushuntira olish. Tanqidiy fikrlash bir so‘z bilan aytganda, “fikrlash haqida fikrlash”dir. Demak, matnni tushunish uchun — “kuzatish, muloqot natijasida yuzaga keladigan axborotni faol va mohirona tahlil qilish, qo‘llash, sintez va tahlil qilish va yoki intellektni tizim asosida ishga solish. Psixolog Dayana Xalpern (ingl. Diane F. Halpern) tanqidiy fikrlashni nazorat qilish, asoslilik va maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanadigan, kerakli natija olish ehtimolini oshiradigan bilish usullaridan foydalanish, deb hisoblaydi. Bu usullar muammoni hal qilish, xulosalarni ifodalash, ehtimoliy baholash va qaror qabul qilishda qo‘llaniladi hamda aniq vaziyat va hal qilinayotgan muammo turi uchun o‘rinli va samarali bo‘lgan ko‘nikmalarni talab qiladi. Aytish lozimki, tanqidiy fikrlash orqali har bir matndan mantiqiy xulosa chiqariladi, ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan tavsiflanadi. Bu ko‘nikmalar majmuasiga kuzatish, izohlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish qobiliyati namoyon bo‘ladi; aniqlik, asoslilik, aniqlik, ahamiyatlilik, teranlik, ijodiy tasavvur kabi bilimlarga tayaniladi. Zamonaviy tadqiqotchilardan biri R.Ennis ideal tanqidiy fikrlashning asosiy va eng muhim dispozitsiyalari, ya‘ni ko‘rsatmalari sifatida quyidagilarni aytib o‘tadi: aniq fikr bildirish; asoslarni qidirish; yaxshi xabardor bo‘lishga harakat qilish; muqobil variantlarni qidirish; ochiq fikrga ega bo‘lish; asoslar yetishmasa, muhokama qilishdan tiyilish va hokazo.

Adabiyotlar tahlili. Talabalar o‘quv faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari N.D.Sagindikova, Sh.Taylanova, A.A.Xoliqov, C.Mamashokirov, I.A.Uzakov, H.X.Jo‘raqulova, I.C.Ergashev va boshqa olimlarning, bo‘lajak mutaxassislarda anglash masalalarini shakllanishining psixologik masalalari N.C.Safaev, O.V.Tenyaeva, E.G.G‘oziev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan

Tadqiqot metodologiyasi. Ishning metodologiyasi quyidagilardan iborat: Tanqidiy fikrlashning ikki asosiy tarkibiy qismi ham mavjud: dispozitsiya (o‘z fikrlari uchun asoslar izlash, qiziquvchan bo‘lish, intellektual mustaqilligini namoyish etish); malaka va ko‘nikmalar (dalillarni aniqlash, dalillarni baholash, maslaklarni baholash, muqobil variantlarni taklif qilish, xulosalar chiqarish, sofizmlarni tan olish va kognitiv buzib ko‘rsatishlar bilan shug‘ullanish). Tanqidiy fikrlashni o‘rganishga yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularni ham ikki guruhga bo‘lish mumkin: intellektual “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” doxastik ko‘rsatmalarni o‘rganadiganlar (epistemologiya va ta‘lim falsafasi); tanqidiy fikrlaydigan shaxsga xos bo‘lgan intellektual malaka va ko‘nikmalarni o‘rganadiganlar (mantiq, argumentatsiya nazariyasi, psixologiya). Shunday qilib, tanqidiy fikrlash tadqiqotlarning fanlararo yo‘nalishi bo‘lib, falsafa, mantiq, pedagogik va psixologiyaning bir qismini o‘z ichiga oladi. “Fikrlash nima?”, degan savolni turli vaqtlarda turli mutafakkirlar tomonidan taklif qilingan turli tadqiqot dasturlari kontekstidan tashqarida berish befoyda. Tanqidiy fikrlash turlicha ta‘riflanadi: “Javob yoki xulosaga erishish uchun axborotni faol va mohirona fikrlash, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni”, “Aniq, oqilona, xolis va dalillar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan intizomli fikrlash”, “Maqsadli hukm o‘z-o‘zini tartibga solish, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarishga, shuningdek, ushbu hukm asoslangan dalil, konseptual, metodologik, mezonlarga

asoslangan yoki kontekstual mulohazalarni tushuntirishga olib keladi”, Demak, germevntik ta’rifga berilgan tahlilga e’tibor qaratsak, maqsad aniq bo’ladi. Germevntika bu — tushunish va tushuntirish san’ati. Bu shunday san’atki, u insonning qanday hayot kechirishi, ideallari, dunyoqarashida aks etadi. Har bir inson hayotda o’zi tushunganicha borliqda yashaydi, fikrlaydi va borliqni tushuna oladi.*Germevntika ham, tanqidiy fikrlash ham “E’tiqodlarimizni shakllantirishda aqlni ishlatish majburiyatini o’z ichiga oladi”. Mazkur fikrlarga hamohang ravishda bugungi o’qitishning maqsadi tushunishni o’rgatishdir.*Buning uchun Gardnerning ko’pzevntlilik tamoyillarini tatbiq etish maqsadga muvofiq bo’ladi:

1. Tilshunoslikni rivojlantirish(so’zni boyitishga, grammatik bilimlarni shakllantirishga qaratiladi).

2. Mantiqiy ongni rivojlantirish (sonlarni o’z ichiga olgan muammoli vaziyatlar hamda mantiqiy o’yinlar).

3. Vizual fazoviy ongni rivojlantirish (loyihalar, ko’rgazmali prezentatsiyalar).

4. Musiqiy zehnni rivojlantirish (ritmik harakatlar,musiqali matnli...).

5. Kinestetik zehnni rivojlantirish (tezkor savol javob, pantamimalar...)

6. Ijtimoiy zehnni rivojlantirish (jamoaviy o’yin, loyihalar tuzish, dialogli o’qitish...).

7. Ichki zehnni rivojlantirish (shaxsiy taassurotlar, she’r va hikoyalar, esse yozish...).

Tahlillar va natijalar. Tanqidiy fikrlash ham, germevntik yondashuv ham insonga mantiqiy xulosa qilish, axborotni qayta ishlash kabi operatsiyalarni bajarish imkonini beradi.* Tanqidiy fikrlash yetti muhim xususiyatga ega: qiziquvchanlik, turli jihatlariga ochiqlik, tizimli fikrlash qobiliyati, tahliliy yondashuv, haqiqatda qat’iyatlilik, tanqidiy fikrlashning o’ziga ishonch va nihoyat yetuklik. Tanqidiy fikrlashni turli yo’llar bilan belgilash mumkin bo’lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi — qoniqarli natijaga erishish istagi haqida umumiy kelishuv mavjud va bunga oqilona fikrlash va natijalarga yo’naltirilgan ish orqali erishish kerak. Xalpernga ko’ra, bu tanqidiy fikrlash, avvalo, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimolliklarni muvaffaqiyatli qo’llash kabi o’zlashtirilgan qobiliyatlarni o’z ichiga oladi. Bunga tafakkur jarayoni bilan shug’ullanishga moyillik ham kiradi. Oxirgi paytlarda Stanovich zamonaviy IQ testlar tanqidiy fikrlash qobiliyatini o’lchash uchun dargumon, deb hisoblaydi. “Tanqidiy fikrlash – mohiyatan, bilimlarga va idrok etilgan donolikka so’roq beruvchi, rag’batlantiruvchi yondashuvdir. U obyektiv nuqtai nazardan g’oyalar va ma’lumotlarni o’z ichiga oladi, so’ngra o’z qadriyatlarimiz, qarashlarimiz va shaxsiy falsafamiz asosida ma’lumot beradi”.

Tanqidiy fikrlashning zamonaviy tadqiqotchilari bu an’anaviy ta’riflarni ijodkorlik, tasavvur, kashfiyot, aks ettirish, empatiya, bilimni bog’lash, feministik nazariya, subyektivlik, noaniqlik kabi fazilatlarini, tushunchalarni va jarayonlarni qo’shgan holda kengaytirdi. Tanqidiy fikrlashning ayrim ta’riflari bu subyektiv amaliyotlarni istisno qiladi. Ennisga ko’ra, “tanqidiy fikrlash – kuzatuv, tajriba, fikrlash yoki muloqot natijasida, ishonch hosil qilish va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida olingan yoki yuzaga keltirilgan axborotni faol va mohirona tahlil qilish, konseptualizatsiya, qo’llash, sintez qilish va/yoki baholash intellektual tartibga solingan jarayoni”. Ennis bergan bu ta’rif Xarvi Sigel va Piter Fasion ta’riflariga to’liq mos keladi. Ennisning ta’rifiga ko’ra, tanqidiy fikrlash juda ko’p e’tibor va miya ishini talab qiladi. O’rganish uchun tanqidiy fikrlash yondashuvi qo’llanilganda, u o’quvchining miya funksiyasini yaxshiroq va matnlarni boshqacha tushunishga yordam beradi. O’qitishning turli sohalari turli xil tanqidiy fikrlashni talab qilishi mumkin. Tanqidiy fikrlash bir xil material haqida ko’proq nuqtai nazar va istiqbollarni beradi. Agar erkinlik va bilim bo’lmasa, tanqidiy fikrlash ham bo’lmaydi. Jaholat

va tanqidiy fikrlash birga bo'lishi mumkin emas. Avvalo, biz bilim, tushunish va savol berish erkinligidan kelib chiqamiz. Amerikadagi birodarlarimizdan biri: "Amerikadagi musulmonlar bilan bog'liq muammo nimada ekanini bilasizmi? Biz savol berishdan oldin shikoyat qilishga kirishamiz".

Qur'oni karimda farishtalar Allohga murojaat qilib: "Unda buzg'unchilik qiladigan, qon to'kadigan kimsani qilasanmi?", deydi. Biz insonlarmiz, bu ishlar bilan shug'ullanmasligimiz kerak. Biz savol berishga, bilim olishga haqli bo'lishimiz va bu bilim bizga to'g'ri tushuncha beradi. Va biz tushunchaga ega bo'lganimizda, biz Xudoga ishonamiz — bu muhim bo'lgan birinchi pozitsiyadir.

Musulmon bo'lish — hozirgi holatdan Rabbimiz bilan va bizga ma'lum darajada erkinlik beradigan ilm bilan tinch-totuv bo'lgan holatga o'tish demakdir. Zarar uchun erkinligingizni ishlatmang, bu ikkinchi muhim holat. Men hamma joyda aytaman: musulmon va inson sifatida men faqir va mazlumlar tarafida bo'laman. Men falastinlik yoki ukrain bo'laman. Men doim mazlum bo'lganlar tomonida turaman. Bularning hammasi yosh avlod bizning so'zlarimizga quloq solishi uchun: agar mazlumlar yordam bermoqchi bo'lsangiz, begunoh odamlarning jihad deb atalmish nom bilan o'ldirilishiga yo'l qo'ymang. Qur'onning tili arabcha, lekin musulmonlarning madaniyati umuman arabcha emas. Islom – universaldir, u hamma madaniyatda bo'lishi mumkin. Boshqalarga o'xshashga harakat qilmang, Rossiya madaniyatida, rus madaniyatida taqvodor bo'lishga va tushunishga harakat qiling. Demoqchimanki, dinimiz bizni atrofimizdagi har bir narsaga tanqidiy qarashga sozlashga yordam berishi kerak. Ayrimlarning aytishicha, musulmon bo'lish uchun o'tmishdagi modellarni takrorlash – "taqlid" qilish zarur. Yaxshi musulmon bo'lish uchun o'tmishdagi ijtimoiy tuzilishni tiklash zarur deb hisoblaydigan musulmonlar bor. Bilasizmi nima: ikki narsani aralashtiryapsiz. O'tmish tamoyillari hozirgi zamon tamoyillari ham bo'lib, o'tmish modellari bugungi kunning emas, o'tmishning modellaridir. Biz tamoyillarini saqlab qolamiz va bizning vaqt uchun yangi modellar topamiz. Siz iqtisodiy jihatdan 7-asrda bo'lgani kabi jamiyatga ega bo'la olmaysiz, to'g'rimi? Hatto shu yerda, o'z mahallangiz ichida ham siz uni tiklay olmaysiz, chunki bu kichik mahalla 7-asrdagi Madinadan ko'ra iqtisodiy jihatdan murakkabroq. Biz tamoyillarini saqlab qolishimiz va modellarni yangilashimiz kerak.

Xulosalar. Tanqidiy fikrlash – bu tamoyillarni saqlab qolish va yangi usullarni topishdir. Shu sababli odamlar yonimga kelib, bilasizmi, biz Islomni isloh qilishimiz kerak, desa, men yo'q deyman. Islom islohotga muhtoj emas. Isloh qilishimiz kerak bo'lgan narsa musulmonlarning aqllari, Qur'on o'qishimiz yo'lidir. Qur'onda hech qanday muammo yo'q, Qur'on o'quvchida muammolar bor. Ma'lumki, germenevtika falsafiy fan gumanitar tadqiqotlar metodikasi sifatida uzoq vaqt tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Yunon tilidan tarjima qilingan "hermenevtika" (hermeneuein) so'zi e'lon qilish, izohlash, tushuntirish degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda, "hermenevtika" — bu matnlarni talqin qilish san'ati, demakdir. Ushbu san'atning kelib chiqishi antik davrdan boshlanadi. Germenevtika o'z nomini qadimgi mifologiyadagi xudolarning xabarchisi Germesdan oldi, u nafaqat oddiy insonlarga Olimp buyruqlarini yetkazgan, balki, ularni izohlab, sharhlab bergan. Shundan kelib chiqib, dastlab germenevistlar (sharhlovchi- olimlar)ning vazifasi oddiy insonlarga ilohiy va yuridik matnlarni sharhlashdan iborat bo'lgan Biz esa matnni germenevtik tadqiqot obyekti sifatida talqin etdik. Aslini olganda, dunyodagi barcha boyliklar germenevtik tadqiqotga obyekt bo'la oladi. Ayniqsa, matn orqali tarixiy merosimizning tub mohiyatini to'la tushunib yetishimiz mumkin bo'ladi.

Har bir matn aniq bir davrni, ijtimoiy jarayonlarni, intellektual salohiyatni o'zida aks ettiradi. Biz tarixni o'rganar ekanmiz, albatta, matnga murojaat qilamiz. Tarixiy sharoitda kelib chiqib matn yaratiladi. Demak, yaratilgan matnda o'sha davr ruhi, qayerda yaratilgani, maqsadi aniq bo'ladi.

Adabiyotlar//Литература/References:

1. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanl. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000;
2. Hakimov M.O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fanl. dokt. ... diss. – Toshkent:2001;
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008;
4. Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertseptsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fanl. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2008.
5. Sanoeva M. Grammatik topshiriqlarni bajarishda matn ustida ishlash metodikasi. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent: 2023.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/7(3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).